

## Intelekti me'yorida bo'lgan maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning diqqat va idrokining xususiyatlari

**Rahmonov Umidjon Jalol o'g'li**

**Karimberganova Sevara**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

o'qituvchisi

**DJURAYEVA SOHIBA BARATOVNA**

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Defektologiya logopediya yo'nalishi talabasi

### **Abstract:**

Kichik maktab Yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi o'qish faoliyati kichik maktab. Yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi

**Keywords:** Maktab, o'quvchi, diqqat, idrok, taraqqiyot, xulq, axloqiy, normalar, xarakter..

**Kirish.** Kichik maktab Yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi o'qish faoliyati kichik maktab. Yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Shu Yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa Yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Kichik maktab davrida o'qish faoliyati bilan shug'ullanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarda asosan farq qila olish, ko'rish va eshitish sezgilari ayniqsa tez o'sadi. 7-10 Yoshli bolalarda ranglarning tuslarini sezish 45% ortishi, 10-12 Yoshgacha bolalarda esa 65%gacha ortishi rus olimlari tomonidan aniqlanilgan. Kichik maktab o'quvchilarini rasm chizishga o'rgatish ranglarni farqlash sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ohanglarni farq qilish sezgirligi, ayniqsa bolalarga musiqa va ashula o'rgatish jarayonida kuchli suratda o'sadi.

**Asosiy qism.** Sezgilarning o'sishida Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ham ahamiyati katta. Aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul-harakat sezgilarini o'stiradi. Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan ta'lim- tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko'p darajada takomillashadi. Mazkur Yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa Yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi.

Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni maqonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. Maktab Yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bolalar rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrofhayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go‘zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o‘z munosabatini bildiradi. Ta’limtarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati o‘sadi. Kuzata bilish muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur shartlardan biridir. O‘quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish, havaslari bilan birgalikda o‘tib boradi. Bu Yoshdagi o‘quvchilar o‘z idroklarini mustaqil idora eta oladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari katta Yoshdagi odamlardan deyarli qolishmasdan to‘g‘ri chiziqni ko‘z bilan chamalab teng ikki bo‘lakka bo‘la oladilar, narsa va chiziqlarni katta-kichikligiga qarab taqqoslay oladilar, narsalarning fazoda turgan o‘rnini, ularning qaysi biri yaqinroq yoki uzoqroq, qaysi biri balandroq yoki pastroq joylashganini ko‘z bilan chamalab, shu masofani bosib o‘tish uchun talab qilinadigan vaqtni ham taxminan hisoblay oladilar. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatni irodaviy zo‘r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo‘lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko‘proq rivojlangan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning yaqqolli, yorqinligi, jozibadorligi, o‘quvchida beixtiyor his-tuyg‘ularni uyg‘otadi va kuchli irodaviy zo‘riqishsiz fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o‘quvchilari diqqatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o‘z diqqatlarini uzoq muddat muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob’ektlari ustida uzoq tura olmaydilar. Ta’lim jarayoni kichik maktab Yoshidagi o‘quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar echish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo‘r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Bu Yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatni to‘plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi. Ushbu matritsa kichik maktab Yoshidagi o‘quvchilar diqqatining ko‘chishi, taqsimlanishi, mahsuldorligi va barqarorligini aniqlash uchun ishlatiladi. Kichik maktab Yoshidagi bolaga Landolt xalqachalari chizilgan blank taqdim etiladi va unga quyidagi qo‘llanma beriladi. “Hozir biz sen bilan “ Diqqatli bo‘l va iloji boricha tezroq ishla“ nomli o‘yin o‘ynaymiz. Sen hozir boshqa o‘rtoqlaring bilan musobaqalashasan. Keyin musobaqada kim yutganini ko‘ramiz. Seni bajargan ishlar

o'rtoqlariningnikidan yomon bo'lmaydi deb o'ylayman. SHundan so'ng bolaga Landolt xalqachali blank ko'rsatiladi va u nima qilishi kerakligi tushuntiriladi. U xalqachalarni qatorlar bo'yicha diqqat bilan qarashi va ular orasidan joyidan o'zgartirib chizilgan xalqachalarni topishi va ularni belgilab qo'yishi kerak. Ish 5 minut davomida bajariladi. Har bir minutdan so'ng eksperimentator "chiziq" deb aytadi. Bu vaqtda bola to'xtagan joyiga chiziq tortishi kerak bo'ladi. 5 minut o'tganidan so'ng eksperimentator "to'xta" deb aytadi va bola ishni to'xtatishi kerak va o'sha erga ikkita chiziq tortib qo'yishi zarur. Ish tugatilganidan so'ng eksperimentator bola tomonidan har bir minut ichida hamda 5 minut davomida ko'rib chiqilgan xalqachalar sonini aniqlaydi. Shuningdek, ishlash jarayonida har bir minutda va 5 minut davomida yo'l qo'yilgan xatoliklar hisoblaniladi. Kichik maktab Yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma -ketlikda bajarishni so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Kichik maktab Yoshidagi bolalar o'z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyani tashkil etilishini talab etadi. O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu Yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Birinchi signal sistemasi ikkinchi signal sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarda mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmali harakatli xotira ustunlik qiladi. Shuning uchun ham ular nazariy qonun va qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko'ra yaqqol ma'lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Kichik maktab Yoshidagi bolalar ta'lim olish munosabati bilan mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda qoldirish qobiliyati o'sib boradi. Esda qoladigan materialning hajmi kengayib boradi, materialning mazmunini tushunish ham chuqurlashadi va murakkablashadi. Ba'zan boshlang'ich sinf o'quvchilari, hatto mazmuni tushunarli bo'lgan materialni ham ma'nosiga e'tibor bermasdan, mexanik ravishda o'rganib oladilar.

### **Xulosa**

Kichik maktab Yoshidagi bolalarning uquvchanligi, albatta, o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir. Bu holat kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarning etakchi faoliyati – o'qish bo'lishi bilan, lekin bilish jarayonlari hali hamma tomonlama rivojlanib bo'lmaganligi bilan bog'liq hisoblanadi. Kichik maktab davridagi bolalarning aqliy rivojlanishi ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Individ ijtimoiy munosabatlar ta'sirida o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning barcha bilish jarayonlarini rivojlanishiga va o'z-o'zidan atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini, munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umarova Gulhayo Murod iljonovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi texnologiyalar // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 09, Oct., 2022. pp. 210- 224.
2. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Zulayho Jabborova Mansur qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish // —Ustozlar uchunl fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 8-12 b.
3. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, D.O.Ximmataliyev. O'smirlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning usullari va vositalari // —Ustozlar uchunl fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 13-23 b.
4. Umarova Gulhayo Murodiljanovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish // —Pedagogsll international research journal. Volume-21, Issue-2, November, 2022. Pp.7-10.
5. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Qayumho'jayeva Fazilat Dilshod qiz. Kichik maktab yoshidagi o'qishga bo'lgan munosabati // -Journal of integrated education and research. Volume 2, ISSUE 1 January 2023. pp 150-154.